



## LUTFIY IJODIDA TUYUQ JANRINING O'RNI

**Raxmatova Zarina Nigmat qizi**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti  
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Lutfiy ijodida tuyuq janrining o'rni, ahamiyati tahlil qilinadi. Shoir tuyuqlaridagi mavzular doirasi, tajnis she'riy san'atidan foydalanish mahorati atroflicha yoritiladi. Shuningdek Lutfiy tuyuqlari orqali xalqona ruh, hayotiy kuzatishlar va falsafiy fikrlarning ifodalanishi atroflicha tahli qilinadi.

**Kalit so'zlar:** tuyuq, mumtoz adabiyot, aruz vazni, badiiy mahorat, tajnis, poetik obraz, ramziy ifoda.

**Kirish.** O'z davrining malik ul-kalomi bo'lgan mavlono Lutfiy ham tuyuq janrida samarali ijod qilgan. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida tuyuq janri o'ziga xos badiiy shakl sifatida shakllangan bo'lib, qisqa hajmda chuqur mazmun ifodalash imkonini beruvchi janr sifatida alohida ahamiyatga ega. Bu janr ayniqsa Alisher Navoiy va undan oldingi davr ijodkorlari faoliyatida muhim o'rin egallagan. Shu nuqtai nazardan, Lutfiy ijodida ham tuyuq janrining o'rni alohida e'tiborga loyiqdir. Uning yuksak badiiy mahorati tuyuqlarida ham o'z aksini topdi. Tuyuqlari xalq ruhiyatiga yaqin, soda bo'lishiga qaramay mazmunan boydir. Masalan, quyidagi tuyuq bunga yorqin misoldir:

*Charxi kajraftor elidin yozaman,  
Chiqmadim hijron qishidin yoza men.  
Bir meni to'liq bila yod etmas ul,  
Har necha ul shahga qulluq yozamen.*

Shoir o'zining bu tuyuqida taqdirning adolatsizligidan va hijron azobidan shikoyat qiladi. U "charxi kajraftor" – ya'ni egri yo'ldan yuruvchi falak deb atalgan samoga murojaat qiladi. Bu ifoda orqali shoir hayotning nohaqliklariga norozilik bildiradi. Birinchi misrada u: "Charxi kajraftor elidin yozaman" – deb, taqdirning egri yo'l tutganidan yozayotganini aytadi. Ikkinchi misrada "Chiqmadim hijron qishidin yoza men" – deb, sovuq, izg'irinli kunlardan ya'ni ayriliq qahratonidan hali ham issiq, huzurbaxsh kunlar(yoz)ga chiqa olmaganini aytadi. Uchinchi misrada oshiqlik motivi yuzaga chiqadi: seviklisi uni "yod etmayotganidan", sadoqatiga e'tibor bermayotganidan shikoyat qiladi. 4-misrada har qancha u shohga qulluq (iltifotli maktub) yozganim bilan meni bir yorliq(maktub) bilan u yod etmaydi demoqda. Lutfiy "yozamen" so'zini uch o'rinda turli ma'nolarda mohirona ifodalash bilan mazmunda teranlikni, mazmun va formaning yaxlit birligini ta'minlay oladi. Tuyuqdagi ma'noni ravon ifodalashda tajnisli qofiya bo'lib kelgan so'zlar halqa bo'lib xizmat qiladi [ 3:175].

Lutfiy lirikasining eng nafis namunalaridan biri bo‘lgan mana bu tuyug‘ida oshiqlik sadoqatining samimiy ifodasini ko‘rishimiz mumkin:

*Men sening ilkingdin, ey dil, bandamen,*

*Vah qachon etkaymen ul **dilbanda men.***

*Bevafolarg‘a meni qilding asir,*

*Sen menga sultonsan, ey dil, **banda men.***

Bu tuyuq “dil”, “banda” va “men” so‘zlarining uyg‘unligi bilan yuzaga keluvchi tajnis asosiga qurilgan bo‘lib, undagi misralar talqin etilsa, quyidagicha ma’no kelib chiqadi: “Men sening dastingdan, ey dil, bandaman (bog‘lanib qolganman), vah, men qachon u dilbandga yetgayman? Meni bevafolarga asir qilding, sen menga sultonsan, ey dil, banda (qul) – men”. Bu tuyuqda tajnis san’ati antiteza san’ati bilan uyg‘unlashib, devonavor oshiqning psixologik holatini ochishga yordam beradi.

Shoirning “Ey ko‘ngul, yorsiz sanga ne bor, bor” tuyug‘i **mukarrar tajnisi** asosida yaratilgan.

*Ey ko‘ngul, yorsiz sanga ne **bor, bor,***

*Qaydakim ul zulfu **anbarbor bor.***

*Chek jafovu javru nozi borini,*

*Bir kun o‘lg‘aykim, degaylar **“bor, bor”.***

Lutfiy bu tuyuqda inson hayotining ma’nosi sevgida ekanini uqtiradi. Yorsiz hayot – ma’nosiz va bo‘sh ekanligini, ammo yor bilan bo‘lgan hayot ham azob va jabrdan holi emasligini aytadi. Shunga qaramay, shoir uchun eng muhim narsa ishqni totib o‘tish, chunki o‘lim kelganda ham u “ishq ahli” sifatida eslanishni istaydi. Bu tuyuqning birinchi misrasidagi juft omonimlar “maqsad va bor” ma’nosini, ikkinchi misrasida “bor, ket” ma’nosida, to‘rtinchi misrasida “mavjudlik” ma’nosini ifodalagan. Tuyuqning tahlili quyidagicha: “Ey ko‘nglim, yor bo‘lmasa, senga ne naf bor? Sen faqat o‘sha sochlari anbar hidli go‘zal bor yerga bor. Sen uning barcha jabr va jafolarini tortaver, toki bir kun kelib, bor, ya’ni samara bo‘ladi, yoki bor deb e’tirof etilasan”. Ushbu nozik so‘z o‘yinidagi go‘zal ma’noga kishining qoyil qolmasligining iloji yo‘q!

Lutfiy forsiy so‘zlar bilan ham tajnisli tuyuqlar yozgan:

*Topti bulbul noladin **bozorini,***

*Kim sevar gul nolai **borini.***

*Pista gar lof urdisa og‘zing bila.*

*Sindur ul og‘zi ochiq **bozorini.***

Bu tuyuqda “Bulbul nolasi bilan bozorini topdi”, ya’ni uning kuylashi, fig‘oni tufayli mashhur bo‘ldi, qadrini topdi. “Kim sevsa gulni, nolasi bor” haqiqiy sevgi g‘am tashvishsiz, iztirobsiz mavjud emas. Gul – yor, go‘zallik timsoli, nola – bulbulning fig‘oni ya’ni: kim ham gul (go‘zallik) uchun aytilgan nolani qadrlaydi? Bu yerda ritorik savol bor, ya’ni hamma ham haqiqiy ishqni tushunavermaydi. “Pista gar lof urdisa og‘zing bila” ya’ni gar sening og‘zing pista kabi chiroyli bo‘lsa-yu, shu bilan maqtansang... “Sindur ul og‘zi ochiq bozorini” ya’ni bunday maqtanchoqlik o‘sha “ochiq bozor”ning qadrini tushirishi(sindirishi) bayon qilingan. Haqiqiy san’atda va ishqda – dard bor, iztirob bor. Har qanday go‘zallik ham qadrlanavermaydi. Maqtanchoqlik esa insonning qadrini tushiradi. Bundan qadr va chiroy tashqi ko‘rinish bilan belgilanmasligi, balki ichki olam, mazmun va dardda degan ma’no anglashiladi.

Tan olish kerakki, Navoiygacha bo‘lgan o‘zbek adabiyotida tuyuqning eng yetuk namunalarini yaratgan shoir Mavlono Lutfiy bo‘ldi. G‘azal, tuyuq, fard, ruboiy Lutfiy lirikasining yetakchi janrlariga aylandi. Shoirning nashr etilgan devonida 16 ta tuyug‘i bor. Uning shu devonidagi 27 ta to‘rtligi “Ramali musaddasi mahzuf” da yozilgan [2:305].

Quyida Lutfiyning ramali musaddasi mahzuf vaznida yozilgan to‘rtlik tuyug‘i vazn paradigmasi:

Uyqu uchi, jong‘a tushdi val vala,

- V - - | - V - - | - V -

Kecha xo‘blar sori og‘rin ko‘z sola.

- V - - | - V - - | - V V

Bu yorug‘lik jumla xo‘blar yuzidur,

- V - - | - V - - | - V -

Bir bahona pesh emastur mash‘ala.

- V - - | - V - - | - V -

Ramali musaddasi mahzufda yozilgan she‘r “Ramali musaddasi maqsur” da yozilgan she‘rdan misra oxiridagi tarmoq ruknining foilon (- V) o‘rniga “foilon” (- V -) tarzida kelishi bilan farq qiladi. Shunga ko‘ra o‘zbek adabiyotidagi ayrim tuyuqlar “Ramali musaddasi mahzuf” vazniga tushaveradi. Yuqoridagi to‘rtlik uning ana shunday to‘rtlik tuyug‘idandir. Biroq shuni unutmaslik kerakki, u tuyuqning qanday navida qalam tebratmasin, o‘zining buyuk so‘z ustasi ekanligini ko‘rsata olgan [3:174].

Lutfiyning quyidagi go‘zal tuyug‘iga diqqat qilsak pand nasihat ruhiga yo‘g‘rilganligiga guvoh bo‘lamiz:

*Tuz begim bu damda suhbat ko‘kini,*

*Tut oyoq, kes dardu g‘amning ko‘kini.*

*Ilikingdin chiqsa boshqa bir oyoq,*

*Ko‘zga ilmondunyaning yer-ko‘kini.*

“Hozir suhbatning “ko‘kini” (eng yuqori, go‘zal holatini) tuz, ya‘ni duoni, niyyatni chiroyli qil. O‘zingni tut, sabr qil va dard-g‘amning ildizini kes. Keyin agar qo‘lingdan boshqa yo‘l (choralar) chiqqanda, ya‘ni mushkuling oson bo‘lganda dunyoning barcha narsalari ko‘zga arzimas bo‘lib qoladi” – bu purma‘no nasihatni to‘rttagina misraning ichiga joylagan va tajnisni ustalik bilan ishlatgan shoir mahoratiga qoyil qolmay ilojimiz yo‘q.

Xulosa qilib aytganda Lutfiy tuyuqlarida ishq-muhabbat, hayot falsafasi, axloqiy g‘oyalar yetakchilik qiladi, aks etadi. Turkiy tilgagina xos bo‘lgan tuyuq janrini boyitishga o‘z hissasini qo‘shgan. Navoiy o‘z asarlarida tuyuq janrini yuksak darajaga olib chiqqan bo‘lsa-da, bu janrning ildizlari Lutfiy kabi shoirlar ijodida shakllanganini ko‘rish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Jo‘rayeva A. Lutfiyning badiiy mahorati. –Namangan: “Namangan”, 2016.
2. Lutfiy. Devon. – Toshkent: “G‘afur G‘ulom”, 1976.-305-310b

3. Orzibekov R. Lirikada kichik janrlar. –Toshkent, “G‘.G‘ulom”, 1976. - 173-176b
4. Valixo‘jayev B. Malik ul-kalom Mavlono Lutfiy. –Samarqand, 1999.
5. Hayitmetov A. O‘zbek klassik adabiyoti janrlari. – Toshkent:Fan,1978.
6. <https://tafakkur.net>
7. Tilayev, E. R., Sanayev, M. Y., Garachshenko, V. V., & Ziganshina, K. R. (2026). Structural and functional analysis of the models of professional training of teachers to work with technologies for the development of educational abilities of children with ASD in the BRICS countries. *ARPHA Proceedings, 11*, 749-761.
8. Mirsanjar, Sanayev. “Review of the Ghazal” Noma” by Abdulla Oripov.” *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. 10.7*: 137-140.